

**ATOIY IJODIDA TIL XUSIYATLARI**

*Ochilova Sarvinoz Husan qizi,*

*ToshDO‘TAU, O‘FF,*

*Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik  
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya.** Maqolada Atoiy ijodining til xususiyatlari masalasi ko‘rib chiqildi. Uning “Bovujudi orazing bargi samandin kim desun?...” deb boshlanuvchi g‘azali tahlilga tortildi. G‘azalning morfologik va leksik jihatlari o‘rganildi.

**Kalit so‘zlar:** Atoiy, leksika, *morfologiya, singarmonizm*

**Абстрактный.** В статье рассмотрен вопрос о языковых особенностях творчества Атои. Была проанализирована его газель, начинающаяся со слов «Бовуюди оразинг барги самандин ким десун?...». Изучены морфологические и лексические аспекты газели.

**Ключевые слова:** *Атоий, лексика, морфология, сингармонизм.*

**Abstract.** In the article, the issue of linguistic features of Atoi's work was considered. His ghazal beginning with "Bovujudi orazing bargi samandin kim desun?..." was analyzed. Morphological and lexical aspects of ghazal were studied.

**Key words:** *Atoiy, lexicon, morphology, synharmonism*

Taniqli shoir **Atoiy** o‘zbek adabiyotining Navoiyga qadar yetishgan atoqli namoyandalaridandir. Yassaviy avlodidan. XIV asrda Samarqand, Buxoro va Balxda yashagan. Turkiy, fors va arab adabiyotlarini chuqur o‘rgangan. Turkiy va fors tillarida ijod qilgan. Navoiy “Majolis un-nafois” asarida shoir hayoti va ijodi haqida to‘xtalib, shunday yozadi: “Mavlono Atoiy Balxda bo‘lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvasht va xushxulq, munbasit (ochiq chehrali) kishi erdi. O‘z zamonida she‘ri atrok (turkiy tilda so‘zlovchilar) orasida ko‘p shuhrat tutti. Bu matla’ aningdurkim:

Ul sanamki suv yaqasinda paritek olturur,

Ĝāyat nāzuklūkindin suv bilä yutsa bolur”.

Shoir ijodi bizgacha to‘la yetib kelmagan. Devonining taxminan XVI asrda ko‘chirilgan, 260 g‘azalni o‘z ichiga olgan qo‘lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanadi. Tanlangan asarlari 1958 va 1960-yillarda e‘lon qilingan. Shoir devonining to‘liq va mukammal nashri 2008-yilda S.Rafiddinov tomonidan amalga oshirilgan.

Atoiy adabiy merosi bilan tanishar ekanmiz, uning xalq og‘zaki ijodini yaxshi bilganligi va ulardan ijodiy foydalanganini sezamiz. Atoiy xalq qo‘shiqlarining tili soddaligi, ravonligi va musiqiyligidan ilhomlanadi hamda uni o‘rganadi. U o‘zining 260 ta g‘azalidan 109 tasini xalq qo‘shiqlariga hamohang yaratgan. Bu narsa uning

xalq tili boyliklaridan bahramand bo'lib, ijod etganligini ko'rsatadi. Atoiy xalq maqollariga katta e'tibor beradi. Ularning mazmunini she'riy misralarga singdiradi:

Boldi bağrim suv ğamıñdin, yaxşılıq, sal suğa,  
Axir, ey gul, xirmānni, albatta, zar ekkān orar.

Bundan tashqari, shoir omonim so'zlar va turli birikmalar vositasi bilan chiroyli so'z o'yinlari yasaydi va go'zal mumtoz tuyuqlar namunasini yaratgan:

Yūziğni, ey malāhat xani, bir ač,  
Toya kōrsūn seni bu mustahiq ač.

Atoiy asarlarining tili Oltin O'rda yodgorliklarining tilidan farq qiladi. Chunki Atoiyda qipchoq unsurlari ustun darajada. Shoir g'azallarida jo'nalish kelishigining -a, ä, -ğa, -gä, -kä, -qa, -na, tushum kelishigining -ni, -in affikslari uchraydi: *kōñlümä, yūzinä, maña, alamğa, bahrına, qa'rına, xirmānni, hamdamin*. O'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalaridan oldin bir n tovushi orttiriladi: *lālazārında, yaqasında, nāzuklūkindin*. Sifatdosh yasovchi qo'shimcha -ğan, -an shakllarida uchraydi. Masalan: *qılan, alan, qılğan, alğan* kabi. Buyruq fe'lining birinchi shaxs ko'pligi fe'l negizlariga -aliñ, -äliñ affiksini qo'shish orqali yasaladi: *baraliñ, keläliñ, alaling* va hokazo. Fe'lining buyruq maylining III shaxs birligi -sun bilan yasalgan: *boyamasun, toya kōrsūn*. Fe'lining orttirma nisbati -dur, -dür, -tur, -tür bilan hosil bo'lgan: *öldür, uyaldur, keräktür, xalāyiqtur* kabi.

Atoiy g'azallarida leksik jihatdan quyidagi so'zlarni uchratish mumkin: *üküş - ko'p, arığ - toza, baqmaq, meñ - xolning kattasi, qamuq -hamma, äsrük - mast, dudaq - lab, ajun - dunyo, neñ - narsa, iydgāh - sayilgoh* kabilar.

Shoir o'xshatish va tashbehlardan unumli foydalangan:

Ey begim, uşbu yüz degül, şams bilä qamarmudur,  
Ey begim, uşbu söz degül, şahd bilä şakarmudur.<sup>1</sup>

Quyida Atoiyning yana bir g'azali tahliliga e'tibor qaratamiz.

*Bovujudi orazing bargi samandin kim desun?*  
*Loladin kim so'zlasun,ham nastarindin kim desun?*  
*Dunyoni tutti saning husnung bila dardim so'zi,*  
*Yusufu Ya'qub ila Baytul-hazandin kim desun?*  
*La'lingiz birla dam urmas zarra sarrofi aql,*  
*Ore, yaxshi bor ekan,asli yamondin kim desun?*  
*To visolingdin yiroqmen, yovumas hech kim manga,*  
*Joe uldur,ayb emas,jonsiz badandin kim desun?*  
*Zulfu xolingdin muattar bo'ldi olam,ba'dazin*  
*Nofayi ohuyu Totoru Xo'tandin kim desun?*  
*Makru fan aylab meni,sayd etti derlar el seni,*  
*Men azaldin mubtalomen,makri fandin kim desun?*

<sup>1</sup> Abdushukurov B. O'zbek tili tarxi. "Nodirabegim" nashriyoti, Toshkent 2021

*Eshikingdakim, shahanshahlarga anda bor yo'q,  
Bu Atoiydek gadoyi bevatandin kim desun.*

### **G'azalning morfologik tahlili**

G'azalda kelishik qo'shimchalarining qadimgi turkiy tilda ham mavjud bo'lgan ammo bugun faqatgina og'zaki nutqimizda saqlanib qolgan bir necha ko'rinishlarini uchratish mumkin. Masalan, qaratqich kelishigining *-ing* shakli *orazing* so'zida, tushum kelishigining *-i, -ni*, shakli *dunyoni, meni, seni* so'zlarida, chiqish kelishigining, asosan, *-din* shakli *samandin, loladin, nastarindin, baytul-hazandin, yamondin, visolingdin, badandin, xolingdin, Xo'tandin, azaldin, fandin, bevatandin* so'zlarida, jo'nalish kelishigining *-ga* shakli *shahanshahlarga, manga* so'zida, o'rin-payt kelishigining *-da* shakli *anda* so'zida uchraydi. Bundan tashqari g'azalda fors-tojik tilidan o'zlashgan *bo-* qo'shimchasini ham *bovujudi* so'zi misolida ko'rish mumkin. Unda yana o'tgan zamon fe'lining *-ti* shakli, buyruq-istak maylining *-sun* shakli, shaxs-son qo'shimchasining *-men* shakli, egalik qo'shimchalarining *-im, -ing, -i, -ingiz* shakllari, sifat yasovchi *-siz, -yi* kabi shakllari qo'llanilgan. G'azalda ot turkumiga mansub: *oraz, barg, saman, lola, nastarin, dunyo, husn, dard, la'l, zarra, aql, visol, yov, ayb, badan, zulf, xol, olam, makr, fan, eshik, shahanshah*; sifat turkumiga oid: *bovujud, yaxshi, yamon, yiroq, jonsiz, muattar, muhtalo, gadoyi*; olmosh so'z turkumiga oid: *men, sen, san, anda, kim, hech kim*; fe'l turkumiga oid *desun, so'zlasun, tutti, urmas, aylab*; yordamchi so'z turkumlariga mansub: *bila, birla, to, -u, -yu* kabi so'z va qo'shimchalar o'rin olgan. Ushbu tahlil natijasida g'azalning morfologik jihatidan kelib chiqib, unda singarmonizm hodisasining, ya'ni tovushlar uyg'unligi yaxshi saqlanib qolinganligiga guvoh bo'lish mumkin. Bu esa o'z navbatida qo'shimchalarning bir emas, balki bir qancha shakllari iste'molda bo'lganiga ishora qiladi. Ularni fonetik hodisa deb emas, alohida qo'shimcha deb qarash mumkin.

### **G'azalning leksik tahlili**

Atoiy g'azallarida turkiy so'zlar bilan bir qatorda arab va fors-tojikcha so'zlarni ham uchratishimiz mumkin. Turkiy so'zlarning ko'pchiligini fe'l so'z turkumiga oid so'zlar hamda qisman olmosh va sifat turkumidagi so'zlar tashkil qiladi. Masalan, *men, sen, san, anda, kim, hech kim, desun, so'zlasun, tutti, urmas, aylab*. Arab tilidan o'zlashgan *olam, aql, fusun, baytul-hazan, zarra, sarrof, visol, zulf, muattar, sayd, muhtalo, makr* so'zlari; fors-tojik tilidan o'zlashgan *bovujud, nastarin, barg, dard* kabi so'zlardan foydalanilgan. Tahlil natijalarini inobatga olgan holda, Atoiy ijodida turkiy tilning o'rni katta qismni tashkil etganini va shu bilan birga arab hamda fors-tojik tillaridan ham unumli foydalanilganiga guvoh bo'lish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. "Nodirabegim" nashriyoti, Toshkent 2021
2. Atoiyg'azallari//<https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/atoiy-gazallar-tuyuqlar-devon.html>